

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№ 5
maxsus son

2025
IYUL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

**BAKALAVR
TALABALARINIG
MAQOLALARI
TO'PLAMI**

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 81 sahifa,
oktyabr, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARI DAROMADINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH HAMDA AHOLI SAVODXONLIGINING ROLI	8
Ochildiyev Bexruz To'liqin o'g'li, Safarov Alisher	
ПРОБЛЕМЫ И БАРЬЕРЫ ВНЕДРЕНИЯ ЦИФРОВОГО БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В МАЛЫХ И СРЕДНИХ ПРЕДПРИЯТИЯХ: ДОКАЗАТЕЛЬСТВА ИЗ РАЗВИВАЮЩИХСЯ И РАЗВИТЫХ ЭКОНОМИК	13
Муратова Наргиза Тахировна	
MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA ERKIN IQTISODIY ZONALARNI TASHKIL ETISHNING AMALIYOT TAHLILI	19
Gulmurodova Marjona Olimjon qizi, Dilmurodov Jurabek Ulug'bek o'g'li, Umida Yuldasheva Anasaliyevna	
O'ZBEKISTON TASHQI SAVDOSINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI VA TENDENSIYALARI	24
Chintemirova Diyora Shuxrat qizi, Akbarova Barno Shuxratovna	
KOMPYUTER TARMOQLARINING MATEMATIK VA DASTURIY TA'MINOTI	29
Burhanova Zulhumor Odiljon qizi, Sayidov Nozimjon Abdulnosirovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SUN'IY INTELLEKTNING MEHNAT BOZORIGA TA'SIRI	34
G'ayratova Zilola G'anijon qizi, Ibragimov G'anijon G'ayratovich	
MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI VA ULARNING MILLIY HISOBOTLARGA TA'SIRI	39
Abdulkarimov Qamariddin, Keldibekova Munisa, Beknazarov Zafarjon	
SOCIAL MEDIA MARKETING (SMM) VA UNING BIZNESDAGI ROLI	44
Quryozov Quryozbek Ergash o'g'li, Yuldashev Abduhakim Abdulkarimovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM MARKETINGI ISLOHOTLARI	50
Panjiyev Abdullo Ixtiyor o'g'li, Toshev Nurbek Janon o'g'li	
QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINI TIZIMLASHTIRISH: STATISTIKA VA TAHLIL	55
Xidirova Shaxzoda Shuhratovna, Raximova Madina Shuxrat qizi	
TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY BOSHQARUV TIZIMINING YUQORI NATIJADORLIGINI TA'MINLASH JIHATLARI	60
Jo'rayev Firdavs Firuz o'g'li, Kadirov Lutfullo Xalimovich	
KORXONA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI	65
Mirzopo'lot A'zamovich Fattoyev, Sevinch G'aybulla qizi Muminova, Zarif Oripovich Axrorov	
ВЛИЯНИЕ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ НА ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН	70
Ходжибаев Камилжан Халиллаевич, Аймуратов Исламбек	
DAVLAT BUDJETI BARQARORLIGINI TA'MINLASH: YASHIL IQTISODIYOT VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR	76
Inatullayeva Intizor Jamshid qizi, Uchqun Yunusovich O'roqov	



DAVLAT BUDJETI BARQARORLIGINI TA'MINLASH: YASHIL IQTISODIYOT VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR

Inatullayeva Intizor Jamshid qizi

Moliya fakulteti, MMT-51/24 guruh, 2-bosqich talabasi

Email: inatullayevaintizor@gmail.com

Ilmiy rahbar:

Uchqun Yunusovich O'roqov

“Moliya va moliyaviy texnologiyalar” kafedrası professori

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat budjeti barqarorligini ta'minlash masalalari hamda yashil iqtisodiyot va uning rivojlanishiga qaratilgan zamonaviy tendensiyalar tahlil qilinadi. Tadqiqotda yashil iqtisodiyot tamoyillarining davlat budjeti siyosatiga qanday ta'sir qilishi, ekologik barqarorlikni saqlashda moliyaviy boshqaruvning ahamiyati ko'rib chiqilib, O'zbekiston Respublikasi misolida davlat budjeti barqarorligini ta'minlashga qaratilgan islohotlar va yashil iqtisodiyotga oid amaliy o'zgarishlar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Davlat budjeti, yashil iqtisodiyot, “yashil” texnologiyalar, davlat moliyasi, yalpi ichki mahsulot, budget daromadlari, budget mablag'lari, budget profitsiti, budget defitsiti.

Abstract: This article examines the issues of ensuring state budget sustainability in the context of the development of the green economy and contemporary global trends. The study analyzes the impact of green economy principles on public budget policy and emphasizes the role of effective financial management in achieving environmental and macroeconomic sustainability. Using the case of the Republic of Uzbekistan, the article explores ongoing fiscal reforms aimed at strengthening state budget stability and evaluates practical measures implemented to promote the transition toward a green economy.

Key words: State budget, green economy, green technologies, public finance, gross domestic product (GDP), budget revenues, budget funds, budget surplus, budget deficit.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы обеспечения устойчивости государственного бюджета в условиях развития зелёной экономики и современных глобальных тенденций. В ходе исследования анализируется влияние принципов зелёной экономики на бюджетную политику государства, а также подчёркивается роль эффективного финансового управления в достижении экологической и макроэкономической устойчивости. На примере Республики Узбекистан изучаются проводимые фискальные реформы, направленные на укрепление устойчивости государственного бюджета, и оцениваются практические меры по содействию переходу к зелёной экономике.

Ключевые слова: государственный бюджет, зеленая экономика, «зеленые» технологии, государственные финансы, валовой внутренний продукт (ВВП), доходы бюджета, средства бюджета, профицит бюджета, дефицит бюджета.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Budget Kodeksining 3-moddasida «Davlat budjeti» iborasi «davlatning davlat vazifalari va funksiyalarini moliyaviy jihatdan ta'minlash uchun mo'ljallangan markazlashtirilgan pul jamg'armasi» deb ta'riflanadi. [1] O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni yanada rivojlantirish sharoitida davlat moliyasi va uning muhim tarkibiy qismi bo'lgan davlat budjeti alohida o'rin egallaydi. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor vazifalarini bajarish, iqtisodiyotni rivojlantirish, jahon bozorlarida mustahkam o'rin egallash, xalqimizning hayot va farovonligini yanada oshirish borasidagi vazifalarni to'liq va samarali amalga oshirish sharoitida davlat budjetining amal qilish mexanizmlarini puxta o'rganish har qachongidan ham dolzarb masala hisoblanadi. So'nggi yillarda global ekologik muammolarning kuchayishi, iqlim o'zgarishi hamda resurslar tanqisligi davlat moliya siyosatini yangi yondashuvlar asosida shakllantirishni taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, yashil iqtisodiyot tamoyillarini davlat budjeti siyosatiga integratsiya qilish davlat budjeti barqarorligini ta'minlashning zamonaviy va muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.



Davlat budjetining funksiyalari quyidagilardan iborat: yalpi ichki mahsulot qiymatini qayta taqsimlash funksiyasi, iqtisodiyotni tartibga solish va boshqarish sistemalari, ijtimoiy funksiyasi, nazorat funksiyasi. Ma'lumki, davlat budjeti mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning qiymatini qayta taqsimlashda ishtirok etadi. Bunday qayta taqsimlash jarayonlari natijasida budjet daromadlari shakllanadi. Davlat budjeti daromadlari-davlat bilan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va aholi o'rtasidagi davlat markazlashgan pul fondining shakllanishi yuzasidan vujudga keladigan iqtisodiy pul munosabatlari hisoblanadi. Budjet daromadlari davlat markazlashgan moliyaviy resurslarining bir qismi bo'lib davlatning funksiyalarini bajarish uchun xizmat qiladi. Ular pul mablag'lari fondlarini shakllantirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlarni o'zida ifoda etadi, bu munosabatlar asosida turli darajadagi hokimiyat organlarining ixtiyorida pul mablag'lari fondlari shakllanadi. [2]

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda davlat budjetining amal qilish mexanizmlari yashil iqtisodiyot tamoyillari bilan uyg'unlashtirilmoqda. Xususan, budjet mablag'larining ekologik barqarorlikni ta'minlashga, resurslardan oqilona foydalanishga hamda "yashil" texnologiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilishi davlat moliyasining uzoq muddatli barqarorligini mustahkamlaydi. Biroq amaliyotda budjet daromadlari va xarajatlari o'rtasida doim ham muvozanatga erishilavermaydi, bu esa budjet defitsiti yoki profitsitining yuzaga kelishiga olib keladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlatning moliya va budjet sohasiga oid ko'plab o'zbek va jahon iqtisodchilari o'z fikr va mulohazalarini keltirgan. Jumladan, XVII asrdan bizgacha Yu.Krijanich va G.Kotoshixinlarning moliya xususidagi asarlari ham yetib kelgan. Yu.Krijanich o'z asarlarida yevropalik mualliflarning iqtisod va moliyaga oid qarashlari va mulohazalaridan ke'ng foydalanadi, ularni Rossiyaning ehtiyojlariga «bog'laydi».

B.I.Nurmuhammedovaning ta'kidlashicha: "Bugungi globallashuv sharoitida O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning milliy ustuvorliklari qatorida oliy ta'lim tizimini rivojlantirish alohida o'rin egallaydi. Iqtisodiyotning talab va ehtiyojlariga javob berishga qodir bo'lgan oliy ta'lim darajasi, xalqaro standartlar talablariga mos bo'lgan oliy ma'lumotli mutaxassislar mamlakatimiz va jamiyatning uzoq istiqbolda raqobatbardoshligini, aholi farovonligi darajasini belgilab beradi. [3]

Iqtisodchi olim L.V.Donsova, N.A.Nikifirovalarning fikricha: "Xarajatlar-jami ishlab chiqarish (tovarlar, xizmatlar) uchun sarflangan pul mablag'laridir". [4]

Shuningdek, A.Vahobov va X.Jamolovlarning "Budjetlararo munosabatlarni muvofiqlashtirish" kitobida budjetlararo munosabatlarga quyidagicha ta'rif berilgan. "Budjetlararo munosabatlar-budjet mexanizmining muhim ajralmas elementi bo'lib, mamlakatning ma'muriy hududiy tuzilmalari subyektlari o'rtasida markaziy boshqaruv tomonidan barcha moliyaviy oqimlarni taqsimlash jarayonini oqilona tartibga solishni ta'minlaydi va bundan tashqari, markaziy hukumatning aniq funksiyalarini davlat boshqaruvining turli darajalarida huquq va majburiyatlarni o'zaro taqsimlab olish orqali bajarish uchun davlat budjetida jamlangan pul mablag'larining bir qismini ushbu subyektlar o'rtasida qayta taqsimlanishini o'z ichiga oluvchi munosabatlarni anglatadi". [5]

Raximov M.Yu o'zining "Iqtisodiyot subyektlarining moliyaviy tahlili" kitobida: "Iqtisodiyotni globallashuvi, integratsion jarayonlar, innovatsion jadallik va kuchli raqobat muhitidagi talablar hisob kitoblarga oid fanlar tizimni ham zamonaviy biznes qoidalarga mos tarzda takomillashtirishni talab etmoqda.

"Yashil iqtisodiyot" sohasida turli tadqiqotlar olib borish bilan shug'ullanuvchi xususiy kompaniyalar "yashil moliyalashtirish" tushunchasining mohiyatini ochib berishga harakat qilgan. Jumladan, Bloomberg New Energy Finance kompaniyasi mutaxassislari "yashil moliya" atamasi "yashil investitsiyalar" bilan bir qatorda qo'llanilishini, ammo amaliyotda "yashil moliyalashtirish" investitsiyalarga nisbatan kengroq tushuncha sifatida ishlatilishini ta'kidlaydi. Bundan kelib chiqadiki, "yashil moliyalashtirish" — bu atrof-muhitga ta'sir etuvchi omillarni har tomonlama tahlil qilgan holda, ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan investitsiya va kreditlash faoliyatining barcha shakllarini qamrab oluvchi moliyaviy mexanizmdir [6]. Bu ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, davlat budjeti, moliyaviy tizim va yashil moliyalashtirish iqtisodiy rivojlanish va ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim omillardir.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada davlat budjeti barqarorligini yashil iqtisodiyot sharoitida ta'minlash masalasi o'rganildi. Tadqiqot jarayonida avvalo O'zbekiston va xorijiy olimlarning budjet siyosati, yashil iqtisodiyot va moliyaviy barqarorlik bo'yicha ishlari tahlil qilindi. O'zbekiston davlat budjeti ma'lumotlari, budjet daromadlari va xarajatlari, investitsiyalar statistikasi asosida empirik tahlil amalga oshirildi. Shuningdek, budjet siyosati va yashil iqtisodiyot integratsiyasining iqtisodiy samaradorlik va resurslardan foydalanish samaradorligiga ta'siri analitik usullar orqali baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Amaliyotda budget daromadlari va xarajatlarning tengligiga doim ham erishilavermaydi. Ayrim hollarda, budgetning daromadlari uning xarajatlardan ko'p bo'lishi mumkin. Bu holatda budget profitsiti yuzaga keladi. Aksincha, budgetning xarajatlari uning daromadlaridan ortib ketganda esa budget defitsiti yuzaga keladi. "Davlat budgeti" o'quv qo'llanmasida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Mustaqillikning dastlabki yillarida davlat budget siyosatining eng muhimi vazifasi iqtisodiyotni barqarorlashtirish doirasida budget taqchilligining ortib borayotgan sur'atini jilovlashdan iborat bo'lgan. Bu vazifaning hal etilishi natijasida o'ta muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan joriy xarajatlargagina mablag'larni ajratish yo'lidan borildi va taqchillikning eng maqbul darajasi ta'minlandi. Islohotlarning 2-bosqichi yakunlariga kelib, budget taqchilligini darajasi (YalMning 3-3,5 foizi) doirasida cheklashga erishildi. 2000-2004-yillar davomida budget taqchilligi darajasi YalMning 1-1,2 foizidan oshmadi. 2005-yildan 2008-yilgacha 0,1-1,5 foiz profitsit bilan ijro qilingan bo'lsa, 2009-yildan 2016-yillargacha bo'lgan davrda davlat budgeti taqchilligi YalMga nisbatan 0,1-0,4 foiz darajasida bo'ldi. Davlat budgetining moliyaviy barqarorligini ta'minlash mamlakat iqtisodiyoti uchun nihoyatda ahamiyatlidir.

1-jadval. 2019-2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining "yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasining ustuvor yo'nalishlari [7]





O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan fiskal islohotlar davlat budjeti barqarorligini ta'minlash bilan bir qatorda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini qo'llab-quvvatlashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Xususan, davlat budjeti mablag'lari hisobidan energiya samaradorligi, ekologik infratuzilma va yashil investitsiyalarni moliyalashtirish hajmining oshirilishi iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlat budjeti barqarorligini ta'minlash mamlakatning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun muhimdir. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, yashil iqtisodiyot tamoyillarini fiskal siyosatga integratsiya qilish: ekologik toza texnologiyalarni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish va resurslardan samarali foydalanishni rag'batlantirish orqali budjet barqarorligini mustahkamlaydi.

Umuman olganda, davlat budjeti barqarorligini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida ta'minlash nafaqat hozirgi avlod manfaatlariga, balki kelajak avlodlar uchun barqaror iqtisodiy muhit yaratishga xizmat qiladi. Shu bois yashil yo'naltirilgan budjet siyosati mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Budget Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonuni. O'RQ-360-son, 26.12.2013. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015-y. 52-son, 645-modda.
2. B.I.Nurmuxamedova "Davlat budjeti", O'quv qo'llanma, Toshkent, "Iqtisod-moliya", 2018, 200-bet
3. B.I.Nurmuxamedova "Davlat budjeti", O'quv qo'llanma, Toshkent, "Iqtisod-moliya", 2018, 4-bet
4. Донцова Л.В, Никифорова Н.А Анализ бухгалтерской (финансовой) отчетности. Практикум.-М.: Дело и сервис, 2018
5. A.Vahobov, X Jamolov. "Согласование межбюджетных отношений". Т.: Moliya. 2002
6. Zadek and Flynn (2013): South-Originating Green Finance: Exploring the Potensial, The Geneva International Finance Dialogues, UNEP FI, SDC, and iisd.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019 yil 4-oktabr, PQ-4477-sonli Qarorining 1-ilovasi

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

5-Maxsus son.

Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100